

## AQLI ZAIF BOLALARNI ONGLI KASB TANLASHIDA MAKTAB VA OILAVIY MUHITNING IJTIMOIIY –PSIXOLOGIK TA’SIRI

Lazizbek Xayitov

*Qo’qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

**Egamberdiyeva Feruzaxon Negmattilo qizi**

*Qo’qon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada aqli zaif bolalarni kasb tanlash ko’nikmalarini shakllantirish, kasb tanlashda maktab va oilaning hamkorligi, intellektual rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarni ta’lim jarayonida kasb-hunarga yo’naltirishda maktab va oilaviy muhitning ijtimoiy-psixologik ta’siri masalasi tahlil qilingan.*

**Kalit so’z va iboralar:** *aqli zaif, alohida extiyoji bor bola, oila, maktab, muhit, kasb, ta’lim, intellekt, ijtimoiy, psixologik.*

Bolalar yoshligida har bir kasbga qiziquvchan bo’lishadi, lekin ularning ma’lum bir kasbga layoqatdan aniqlashdan ko’zlangan maqsad, bolalarga ularning qiziqish va qobiliyatlariga muvofiq mehnat faoliyatining turiga doir bilim va ko’nikmalarini, malakalarini tarkib toptirishdir. Ularga kasbga yo’naltirishning asosiy yo’nalishlari esa kasbiy ma’lumot berish, kasbiy tarbiya, kasb diagnostikasi haqida kasbiy maslahatlarni faol yo’sunda olib borishdan iborat. Bolaga kasbiy ma’lumot berish dastlab oilada amalga oshirilsa samarasi yaxshi bo’ladi. Ular kasbga doir bilimlarni keyinchalik maktabda, to’garaklarda kengaytiradi va chuqurlashtiriladi.

Mehnatning korreksiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifasi aqli zaif o’quvchilarning psixofiziologik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatishda, ularda ijtimoiy mehnat va maishiy ko’nikma hosil qilish uchun zarur bo’lgan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashda ifodalanadi. 1-3 sinflardagi qo’l mehnati aqli zaif bolalarga kasb- mehnat ta’limi berishning proektiv (kirish) bug’ini hisoblanadi. Qo’l mehnati darslarida kasb-mehnat tayyorgarligini bog’liqligini yordamchi maktab o’quvchilarida mehnat ta’limiga hozirlikni shakllantirishdan iborat. Yordamchi maktab o’quvchilari dastlabki mehnat ko’nikmalarini hosil qiladilar. O’zlariga qulay bo’lgan turli materiallar bilan ishlash usullarini o’zlashtiradilar, ularning xususiyatlari, asboblar bilan ishlash usullarini o’zlashtiradilar, ularning xususiyatlari, asboblar bilan tanishadilar. Buyumlar tayyorlashda ulardan foydalanish mahoratini egallaydilar. To’g’ri ish holatini o’zgalarning ishga bo’lgan g’ayratlarini boshqaradilar. Oligofrenopedagog qo’l mehnati darslarida doimo o’quvchilarga turli shakllagi mehnatga qiziqishni singdirib borishi lozim. Ta’limning yakunlovchi bosqichida muayyan ixtisosliklarga qiziqish uyg’otish ishlarini kuchaytirish va o’quvchilarni kasbga yo’naltirish ishlarini boshlash mumkin.

Yordamchi maktabning o’ziga xos xususiyati ta’limning kirish yo’nalishi yaqqol ifodalanishi bilan ajralib turadi, bunda har bir yangi bosqichdan oldin tayyorgarlik darajasi amalga oshiriladi. Masalan, aqli zaif bolalar buyumning tayyorlashning butun jarayonini esda saqlab qololmasligi mumkin. Shu sababli ish tushuntirib beriladi, ayrim usullar

operasiyalar bo'yicha namoyish qilinadi. Bundan maqsad bola butun ish jarayonini yaxlit va har bir detalni alohida tasavvur qila olsin. Tuzatish va yo'naltirish vazifasini hal qilishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. O'quv-tarbiya jarayoni metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirdagina aqli zaif o'quvchilarning psixofiziologik rivojlanishdagi kamchiliklarini muvaffaqiyatli tuzatish mumkin. Defektolog o'qituvchi o'z fanini o'z o'quvchilarini yaxshi bilishi, o'quv materialini, ta'lim metodlarini, ko'rgazmali qurollarini, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan didaktik materialni sinchiklab tanlashi lozim. O'qituvchi o'quvchiga o'z shaxi bilan ham ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyalanuvchilarga hurmat bilan qarashi, shu bilan birga talabchanlik, pedagoglik nazokati aqli zaif bolalarga ta'lim va tarbiya berishga alohida ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shunday qilib, qo'l mehnati darslari orqali o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishiga va ularni kasb-mehnat ta'limiga tayyorlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif bolalarni ongli kasb tanlashida nafaqat pedagog-defektologlarning balki oilaning ham o'rni juda katta.

Har bir oilada ota-ona sevimli farzandlari tarbiyasi bilan mashg'ul ekan, ulardan albatta ertaga sog'lom komil inson, yaxshi kasb-kor egalari chiqishini hohlaydilar. Chunki bolaning bilimli, ilmi, o'quvchi yaxshi kasb egasi bo'lishidan avvalo oila manfaatdor, qolaversa solih farzand tarbiyalab borish ota-onaning burchidir. Shunday ekan bola ulg'ayib borishi bilan biror kasb-hunarga yo'nalish berishda bosh-qosh bo'lish, maslahatlar berib borish, fikrini bildirish, mazkur yo'nalish bo'yicha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ota-ona tarbiyasining bir qismi hisoblanadi. Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rang-barang kasblar olamida bola qanday qilib muljal olish kerak? Hayot yo'lining mehnat faoliyatining to'g'ri boshlash uchun qaysi kasbni tanlagan maqul? Bolaning ichki dunyosida shu kabi savollar g'ujg'on o'ynar ekan, shu asnoda albatta, birinchi yordam sevimli oilasidan, ota-onasidan bo'lmog'i lozim. Ota-ona esa o'z navbatida esa albatta bolaning qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlariga tayangan holda ish ko'rishlari muhim ahamiyatga ega. Xo'h bular nima? U bolada qanday aks etadi?

Qiziqish – bu odamning muayyan mehnat sohasidagi ijobiy munosabatlarda bo'lib, uning bilim va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishdir. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami bolaning bilim darajasini hamda muayyan narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib ulg'aya borib, maylga, bolaning muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishida hamda mazkur faoliyat turiga munosib keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borishi uchun intilishga aylanadi. Qobiliyat esa odamning biror faoliyati sohasida muvaffaqiyat qozonishga yordam beradigan individual psixologik xususiyatdir. Demak, ota-ona shularning barchasini hisobga olgan holda bu masalaga to'g'ri yondoshishi kerak bo'ladi, chunki boshlang'ich tarbiyani bola oiladan oladi.

Menimcha bolaga juda erta vaqtlardan oq turli kasb –hunarlar haqida baholi qudrat ma'lumot va tushunchalar berib boorish joiz. Sababiki ular o'zlarini qiziqtirgan kasb sirlariga, ularning yaxshi tomonlariga barvaqt e'tibor bilan qaraydigan bo'lishadi. Bundan tashqari bolaga kasblarning yomon bo'lmasligini albatta uqtirish lozim (aksincha ma'lum kasb egalarining hulq-atvori, xarakterlari, turlicha bo'lishi mumkin). Bolani kasb-hunarga yo'llashga dastavval o'yinlar va o'yinchoqlar vositasida kechadi. Shu asosda bolada kasb-hunarga bo'lgan mehr shakllanib boradi. Shu barobarida bolani mehnatga ham o'rgatib

borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha davrida ota-onaga bog'cha tarbiyachilari hamkorlik qilishsa, o'qish davrida esa bunga muallimlar, tarbiyachilar va tugarak rahbarlari qo'yiladi. Har jihatdan bolani nazorat qilib esa alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'qishni yaxshi o'zlashtirgan bola o'zini qiziqtirgan kasb-hunarga ham tez ko'nikib ketadi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, oilada ota-ona (yoki bobo-buvi)lar bolaning kelajagini oldindan belgilab qo'yishi mutloqo noto'g'ri hisoblanadi. Bolalar yoshligida ham kasbga qiziquvchan bo'lishadi. Lekin uning ma'lum bir kasbga layoqatini aniqlashdan ko'zlangan maqsad, bolalarda ularning qiziqishi va qobiliyatlariga muvofiq mehnat faoliyatini turiga qarab bilim, kunikma va malakalarini tarkib toptirishdir.

Ularning kasbga yo'naltirishning asosiy yo'nalishlari esa kasbiy ma'lumot berish, kasbiy maslahatlarni faol yo'sinda olib borishdan iborat. Bolaga kasbiy ma'lumot berish dastlab oilada amalga oshirilsa, shunda samarasi yaxshi bo'ladi. Ular kasbga doir bilimlarni kiyinchalik bog'cha, maktabda, tugaraklarda oladilar. U yerda o'z bilimlarini amalda sinab ko'radilar. Ota-onaning bola bilan kasb haqidagi suhbatlari bolada kasbiy burch, kasb sha'ni, kasb ma'suliyati va kasb etikasi singari fazilatlarni shkllantirish imkonini beradi. Bolaning kasbiy maqsadlari aniqlangach, ular erishayotgan yutuqlarni muntazam nazorat qilib, ularning o'zini o'zi tarbiyalashni rag'batlantiriladi va o'z maqsadlariga erishishlarida o'z vaqtida yordam beriladi. Keyinchalik ular tugarak, klublardagi mashg'ulotlari jarayonida bu kasbga ko'nikib qoladilar.

Binobarin, "Kasbga yo'naltirish bo'yicha" oiladagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi, vazifalari va uning beqiyos ahamiyati mavjud.

Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga tarbiya vositalari (adabiyot, san'at, matbuot, kino, radio, televideniya, kutubxona, klub va hakoza) ta'siri samaradorligini oshirish yanada yaxshi natija beradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarida kasb tanlashning nazariy va amaliy vazifalarini bajaradigan ruhshunos, pedagog va shifokor mutaxassislar bilan maslahatlashish yaxshi foyda beradi. Chunki ba'zi bir kasb turlariga sog'lig'i to'g'ri kelmasligi ehtimoli bo'lishi mumkin, yoki boshqa bir kasbga jur'at va irodasi yetishmayotganini aniqlash, mumkin bo'ladi.

Kasbiy maslahatlarda bola voyaga yetgan o'qish uchun boradigan o'quv yurtlari va korxonalar haqida ma'lumotlarni berish, kasbning ahamiyati, ishlab chiqarish tizimidagi o'rni, kasb bo'yicha mehnatning mazmuni haqida hikoya qilish foydali bo'ladi. Suhbat vaqtida mazkur kasb egalarining ish sharoitlari, mehnat faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlari, ish kuni, ta'til, ish haqi, imtiyozlar haqida va ayniqsa malaka oshirish imkoniyatlari alohida ta'kidlanadi.

Farzandlarimizni kasb tanlashidan bir necha mativlar:

Birinchi guruhga – farzandlarining kasb tanlashiga faol ta'sir etuvchi oilalar (59,5 %) kiradi. Bu guruhdagi ota-onalar farzandlarining individual-psixologik xususiyatlari – xarakteri, qobiliyati, qiziqishi va sog'ligiga qarab, bolalariga aniq maslahatlar berishadi, har bir kasbning o'ziga xos tomonlari, talablari, mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida so'zlab beradilar. Bunday oilalarda bolalarning kasb tanlashi va rivojlanishi uchun barcha sharoit etarli.

Ota-onalar o'z farzandlarida hali bolalik davridan boshlaboq mehnat ko'nikmalarini hosil qiladi, mehnat qilishga o'rgatadi.

Darhaqiqat, ota-ona to'g'ri tarbiya mehnat tarbiyasidan boshlanishini doimo yodda tutib, bolalarni kuchi yetadigan ish bilan band qilishlari, bu borada o'zlari ibrat namuna bo'lishlari lozim.

Ota-ona uy ishlarida kuchi etadigan ish bilan o'z bilganicha qarasha boshlagan bolalarning yordamini ma'qullashi va maqtashi zarur. Bola ham ko'pgina hatti – harakatlarini qilingan mehnat bilan o'lchaydi, uni qadrlaydi. Bu esa ular qalbida e'tiqod va ishonch to'yg'ularini o'yg'otadi. Ota-ona nafaqat bolalarning kiyinishi, kundalik turmushi haqida, balki ularning kelajagi, ma'naviy shakllanishi, iqtidoriga mos kasb tanlashi, hayotga, faoliyatga tayyorlash haqida ham o'ylaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub oilalar (25%) farzandlarining kasb tanlashga e'tiborsiz qarashadi, ularga amaliy yordam berishmaydi va qo'yidagicha hukm chiqaradilar: "Qaysi kasb yaxshi bo'lsa, o'sha kasbni tanla" va ularning hayot kasb haqidagi tasavvurlari ham yetarli bo'lmaganligi tufayli o'z qobiliyatiga mos kasb topguncha ancha yillar o'tib ketadi.

Uchunchi guruhdagi (15,5%) ota-onalarni – avtoritar ota-onalar deb atash mumkin. Bu guruhdagi ota-onalar farzandlarining hayotiy rejalariga aralashadi. Bunda bolalarning qiziqishi, imkoniyatga olinmaydi. Barcha rejalar ota-onalar tomonidan tuziladi va hal etiladi. Ota-ona tomonidan qo'llaniladigan ushbu tarbiyaviy usul natijada hayotdan, tanlagan kasbidan, o'z faoliyatidan qoniqmaslik xissini keltirib chiqaradi.

Boladagi biron bir narsaga bo'lgan havasni bo'g'ib qo'yish, bola qiziqqan narsa bilan shug'ullanishni man qilish ularga nisbatan bo'lgan adolatsizlikning bir ko'rinishidir. Bu yo'l bilan bola tarbiyasining yoki ularning o'qishga, kasbga bo'lgan qiziqishini o'zgartirib bo'lmaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'llash – ko'p qirrali, ko'p yo'nalishli muammodir. Ota-onalarning shaxsiy ibrati, kasblar haqida yetarli bilim va tajriba egaligi, kasbiy tarbiyaning mohiyatini tushunishi, oila pedagogikasidan xabardorligi, ularning ma'naviy saviyasi, bilimi, ma'daniyati, ijtimoiy faolligi – kasb tanlash ishlarining muvaffaqiyatli bo'lishi garovidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kasb tanlash ishining muvaffaqiyatli bo'lishida oilaning o'rni beqiyosdir. Chunki, birinchidan, ota -ona katta hayotiy tajribaga, ikkinchidan, ular o'z bolalarining psixofizologik xususiyatlarini boshqalarga qaraganda yaxshi biladi., uchunchidan faqatgina oilada mehnat tarbiyasining asosi shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarini kafolatlari to'g'risida" gi Qonun. Toshkent-2007y.
2. Hakimova M.F., Raxmonova V.S. Maxsus maktab internat (maktab)larda tarbiyaviy ishlarni uyushtirish va rejalashtirish. /Metodik tavsiyanoma.-Toshkent, RTM. 1998. -27 b.
3. Xakimova M.F. «Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik asoslari» Toshkent 2010 yil

4. N.Nurmuxammedova «Mexnat talimida oilaning axamiyati va roli» Toshkent «Umid» nashriyoti 2010-yil
5. Raxmonova V.S. Maxsus pedagogika. Toshkent-2006y.
6. Axmedova Z.M., Ayupova M.YU., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin" Toshkent – 2013
7. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). Rinolalik bolalar ovoz va nafasini logopedik oyinlar orqali rivojlantirish. *Science Promotion*, 1(2), 160-163.
8. Xayitov, L. (2023). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati. *Innovative developments and research in education*, 2(18), 135-139.
9. Xayitov, L. (2023). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKI XUSUSIYATLARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(18), 140-143.
10. Xayitov, L. R., & To'liqinova, O. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IZCHIL NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Xayitov, L. R., & Umarova, K. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIALOGIK NUTQINI O'YIN FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRISH. *Interpretation and researches*, 1(1).
12. Khayitov, L. R. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Science Promotion*, 1(1), 98-102.
13. Khayitov, L. R., & Egamberdieva, F. (2023). VOCATIONAL GUIDANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DEVELOPMENTAL DISABILITIES. *Science Promotion*, 1(1), 23-27.
14. Khayitov, L. R., & Abdusalomova, F. (2023). WAYS TO STUDY AND ELIMINATE THE INFLUENCE OF SPEECH DEFECTS ON THE MENTAL DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science Promotion*, 1(1), 6-10.
15. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). RINOLALIK BOLALAR OVOZ VA NAFASINI LOGOPEDIK OYINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Science Promotion*, 1(2), 160-163.
16. Khaitov, L. (2023). METHODS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH BOAS WITH HEARING PROBLEMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 155-161.
17. Khaitov, L. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH CHILDREN WITH HEARING DEFECTS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 162-167.
18. Lazizbek, X., & Shaxlo, A. (2023, December). NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 19, pp. 78-82).

19. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
20. Xaitov, L. A. (2021, December). THE ISSUE OF SUSTENANCE AND PROFESSION IN HAKIM TERMIZI'S WORK "BAYANUL KASB" ("DESCRIPTION OF THE PROFESSION"). In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 67-69).
21. Khayitov, L. R., & Turgunova, S. (2023). CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENT IN PRESCHOOL AGE SPEECH DEVELOPMENT. *Science Promotion*, 1(1), 88-92.
22. Курбаниязов, З., Бабажанов, А., Давлатов, С., Гозибеков, Ж., Хайитов, Л., Даминов, Ф., & Казаков, М. (2015). Анализ результатов хирургического лечения больных узловыми образованиями щитовидной железы. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (82)), 45-48.
23. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
24. Khayitov, L. R., & Komilov, O. (2023). TECHNOLOGIES FOR GROWING SPEECH OF MENTALLY RETARDED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science Promotion*, 1(1), 32-35.
25. Abdullaeva, B., Khaitov, L., & Aziza, M. (2020). Development of social pedagogical competence of future defectologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1139-1142.
26. Хайитов, Л. Р., & Уктамова, Ш. Г. (2016). Осознанный выбор школьников с ограниченными умственными возможностями, а также влияние семейной среды, социальной-психологии. *Евразийский Союз Ученых*, (6-3 (27)), 50-53.
27. Khaitov, L. (2020). Essence and structure of socio-pedagogical competence of the future logopeda teacher. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.